

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasi tarkibida kommunikativ yondashuvning o'rni.

Azizbek Abdupattayev Namangan davlat chet tillari instituti stajyor-o'qituvchi

azizbekabdupattayev@mail.ru

+998931792820

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasi tarkibida kommunikativ yondashuvning o'rni yoritiladi. Lingvistik kompetensiya fonetik, leksik va grammatik bilimlarning nutq jarayonida amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq holda talqin etiladi. Kommunikativ yondashuv til birliklarini real muloqot jarayonida egallashga xizmat qiluvchi samarali metodik asos sifatida asoslanadi. Tadqiqot natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda kommunikativ yondashuvning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

lingvistik kompetensiya, kommunikativ yondashuv, chet til o'qitish metodikasi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, nutqiy faoliyat, til tajribasi, kommunikativ mashqlar.

Роль коммуникативного подхода в структуре лингвистической компетенции будущих учителей английского языка.

Азизбек Абдупаттаев

стажёр-преподаватель

Наманганский государственный институт иностранных языков

azizbekabdupattayev@mail.ru

+998 93 179 28 20

Аннотация

В данной статье рассматривается роль коммуникативного подхода в

структуре лингвистической компетенции будущих учителей английского языка. Лингвистическая компетенция трактуется во взаимосвязи с практическим применением фонетических, лексических и грамматических знаний в процессе речевой деятельности. Коммуникативный подход обосновывается как эффективная методическая основа, направленная на освоение языковых единиц в условиях реального общения. Результаты исследования показывают, что коммуникативный подход имеет важное значение в профессиональной подготовке будущих учителей английского языка.

Ключевые слова:

Лингвистическая компетенция, коммуникативный подход, методика обучения иностранному языку, будущий учитель английского языка, речевая деятельность, языковой опыт, коммуникативные упражнения.

The Role of the Communicative Approach in the Structure of Linguistic Competence of Future English Teachers.

[Azizbek Abdupattayev](#)

[Trainee Teacher](#)

[Namangan State Institute of Foreign Languages](#)

azizbekabdupattayev@mail.ru

[+998 93 179 28 20](#)

Abstract

This article examines the role of the communicative approach in the structure of linguistic competence of future English teachers. Linguistic competence is interpreted in connection with the practical application of phonetic, lexical, and grammatical knowledge in the process of speech activity. The communicative approach is substantiated as an effective methodological framework aimed at mastering language units through real-life communication. The results of the study

demonstrate that the communicative approach plays an important role in the professional training of future English teachers.

Keywords:

linguistic competence, communicative approach, foreign language teaching methodology, future English teacher, speech activity, language experience, communicative exercises.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini mukammal egallash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro muloqot va ta'lim sohasidagi integratsiya jarayonlarining jadallashuvi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilaridan lingvistik bilimlar bilan bir qatorda ularni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llay olish kompetensiyasini ham talab etmoqda. Shu bois zamonaviy til ta'limida bo'lajak o'qituvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Lingvistik kompetensiya fonetik, leksik va grammatik bilim, ko'nikma va malakalarning majmui bo'lib, u nutqiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. O'zbek metodist olimi J. Jalolov ta'kidlaganidek, chet tilni o'rganish sun'iy muhitda tashkil etilishi sababli maxsus metodik yondashuvni talab etadi hamda til materialini bilan birga nutqiy faoliyat turlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda kommunikativ yondashuv yetakchi metodik asos sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv tilni muloqot vositasi sifatida o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lib, til birliklarining real nutqiy vaziyatlarda, ma'no va vazifaga asoslangan holda o'zlashtirilishini ta'minlaydi. J. Jalolov fikricha, chet tilni o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchining nutqiy faoliyatini shakllantirishdan iborat.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasi tarkibida kommunikativ yondashuv muhim o'rin tutadi. Chunki kelajakdagi pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqotni tashkil etuvchi va o'quvchilarni faol nutqiy jarayonga jalb etuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan,

mazkur tadqiqot bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasida kommunikativ yondashuvning o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan bo'lib, u o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini kommunikativ yondashuv asosida rivojlantirish masalalari milliy va xorijiy metodik adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Ushbu mavzuni yoritishda, avvalo, chet til o'qitish nazariyasi va metodikasiga oid fundamental ilmiy manbalarga murojaat qilish muhim hisoblanadi.

O'zbek metodika ilmida mazkur yo'nalishda Jamol Jalolovning ilmiy-pedagogik qarashlari alohida o'rin tutadi. Uning ishlarida chet til ta'limining nazariy asoslari, lingvistik va nutqiy kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi hamda kommunikativ yo'naltirilganlik tamoyillari atroflicha yoritilgan. Olim chet tilni o'qitishning asosiy maqsadi sifatida o'quvchining nutqiy faoliyatini shakllantirishni belgilab, til birliklari aynan muloqot jarayonida o'zlashtirilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, u til tajribasining chet tilni o'zlashtirishdagi ijobiy va salbiy ta'sirini ilmiy asosda izohlaydi.

Xorijiy metodistlar J. Richards va T. Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ til o'qitish nazariyasida til muloqot vositasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvda lingvistik bilimlar real nutqiy vaziyatlar va kommunikativ vazifalar orqali egallanib, lingvistik kompetensiyaning amaliy yo'nalishda rivojlanishini ta'minlaydi.

Rus metodistlari N.D. Galskova va N.I. Gez tadqiqotlarida esa kompetensiyaviy yondashuv asosida lingvistik kompetensiyaning kommunikativ kompetensiya tarkibidagi o'rnini asoslab berilgan. Ularning fikricha, lingvistik kompetensiya nutqiy faoliyat turlari orqali shakllantirilishi zarur.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirishda kommunikativ

yondashuv yetakchi metodik asos ekanini tasdiqlaydi. Ushbu ilmiy qarashlar mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik poydevorini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasi tarkibida kommunikativ yondashuvning o'rnini aniqlash va ilmiy asoslashga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy lingvodidaktika, pedagogika hamda chet til o'qitish metodikasi nazariyalariga tayangan holda ishlab chiqildi va kompleks yondashuvlar tizimiga asoslandi.

Nazariy-metodologik asos sifatida kompetensiyaviy, kommunikativ va tizimli-faoliyat yondashuvlari tanlandi. Kompetensiyaviy yondashuv lingvistik bilim, ko'nikma va malakalarni kasbiy faoliyatda qo'llashga yo'naltirilgan yaxlit tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi. Kommunikativ yondashuv esa lingvistik kompetensiyani nutqiy faoliyat turlari orqali shakllantirish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash hamda tizimli-strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida lingvistik kompetensiyaning fonetik, leksik va grammatik komponentlari hamda ularning kommunikativ faoliyat bilan o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Pedagogik kuzatuv metodi ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nutqiy faolligi va lingvistik kompetensiya namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Empirik bosqichda anketa va suhbat metodlari orqali bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ yondashuvga munosabati, lingvistik tayyorgarlik darajasi va metodik ehtiyojlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar tasniflandi va umumlashtirildi, natijalarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov elementlari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALARI

Mazkur tadqiqot doirasida o'tkazilgan nazariy va empirik tahlillar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasi tarkibida kommunikativ yondashuv muhim va belgilovchi o'rin tutishini tasdiqladi. Olingan ma'lumotlar tizimli-strukturaviy hamda mantiqiy-tahliliy yondashuv asosida qayta ishlanib, ilmiy jihatdan talqin qilindi.

Nazariy tahlil natijalari lingvistik kompetensiya fonetik, leksik va grammatik komponentlarning oddiy yig'indisi emas, balki nutqiy faoliyat jarayonida faollashuvchi yaxlit tizim ekanini ko'rsatdi. Kommunikativ yondashuv ushbu komponentlarning funksional uyg'unlashuvini ta'minlab, til birliklarining real muloqot vaziyatlarida samarali qo'llanishiga imkon yaratadi. Aksincha, lingvistik bilimlarning kommunikativ vazifalardan uzilgan holda o'rgatilishi nutqiy faollikni cheklashi aniqlandi.

Empirik tadqiqot natijalari pedagogik kuzatuv, anketa va suhbat metodlari asosida tahlil qilindi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy, qoidaga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy faolligi past bo'lsa, kommunikativ vazifalar asosida tashkil etilgan darslarda ularning tashabbuskorligi va til birliklaridan foydalanish darajasi sezilarli darajada oshgan. Anketa natijalari esa lingvistik bilimlarga ega bo'lish bilan birga, ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida kommunikativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi lingvistik kompetensiyaning barcha komponentlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Xususan, grammatik shakllarni funksional qo'llash, leksik birliklardan kontekstga mos foydalanish va fonetik me'yorlarga rioya etish ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda kommunikativ yondashuvni yetakchi metodik asos sifatida qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Olingan xulosalar ta'lim jarayonini kommunikativ yo'naltirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasi tarkibida kommunikativ yondashuvning o'rnini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga yo'naltirildi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, lingvistik kompetensiya bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida tayanch komponent bo'lib, u fonetik, leksik va grammatik bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlit tizimi sifatida shakllanadi. Tadqiqot natijalari ushbu komponentlarning samarali rivoji kommunikativ yondashuv bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi, chunki til birliklarining nutqiy vaziyatlarda funksional qo'llanilishi lingvistik kompetensiyani faollashtiradi.

Ikkinchidan, kommunikativ yondashuv lingvistik bilimlarni reproduktiv darajadan produktiv darajaga olib chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida an'anaviy qoidaga yo'naltirilgan ta'lim nutqiy faollikni yetarli darajada rivojlantirmasligi, kommunikativ vazifalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar esa tashabbuskorlik va til birliklaridan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishi aniqlandi.

Uchinchidan, empirik tahlil bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida lingvistik bilimlar mavjud bo'lsa-da, ularni real muloqot jarayonida qo'llashda metodik qiyinchiliklar borligini ko'rsatdi. Bu holat lingvistik kompetensiyani shakllantirishda kommunikativ yondashuvni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda joriy etish zarurligini asoslaydi.

Olingan natijalarga tayanib, quyidagi ilmiy-metodik takliflar ilgari suriladi:

1. bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kommunikativ yondashuv asosidagi mashqlar ulushini oshirish;
2. ingliz tili o'qitish metodikasi fanlari mazmuniga kommunikativ vaziyatlar, rolli o'yinlar va muammoli topshiriqlarni tizimli kiritish;
3. lingvistik kompetensiyani baholashda bilimlarning kommunikativ vazifalarda qo'llanish darajasini hisobga oluvchi mezonlarni joriy etish;
4. kommunikativ yondashuvga oid seminar-treninglar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda kommunikativ

yondashuv yetakchi metodik asos ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi hamda chet til o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Jalolov, J. (1996). Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.

Jalolov, J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.

Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (1986). Approaches and Methods in Language Teaching: A Description and Analysis. Cambridge: Cambridge University Press.

Galskova, N. D., & Gez, N. I. (2006). Teoriya obucheniya inostrannym yazykam: Lingvodidaktika i metodika. Moskva: Akademiya.